



BUXORO VILOYATIDA TURIZM RIVOJLANISHIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Qo‘shshayev I.A.

Ilmiy rahbar: Jumayeva Z.Q.

Osiyo Xalqaro Universiteti

Buxoro tabarruk qadamjolari, maftunkor tarixiy obidalari, o‘ziga xos ko‘chalari, mehmondo‘st aholisi bilan mashhur. U islom dinining markazi, sharif va faxrli shahar, shaharlar imomi, deb ham e‘zozlanadi. Shaharning markazi UNESCO jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

Viloyatda ko‘plab qadimiy masjid va madrasalar mavjud. Ularni ziyorat qilish sayyohlarga islom me‘morchiligi va madaniyatining bebaho merosi bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. Ularning har biri chuqur tarixiy ildizga ega, Buxoro taraqqiyotining turli bosqichlarini ifoda etadi.

Masalan, Ko‘kaldosh madrasasi nafis naqshinkor ko‘rinishi bilan boy o‘zbek me‘morchiligining noyob qirralarini ochib beradi. Kalon masjidi yirik ko‘lami va betakror me‘morchiligi ila har qanday sayyohni hayratga soladi. Ismoil Somoniy maqbarasi esa Buxoroning boy madaniy merosini ifodalovchi eng qadimiy yodgorliklardan. Mazkur obyektlarning har biri o‘zbek me‘morchiligi durdonalari bo‘libgina qolmay, ularni barpo etganlarning hayoti va e‘tiqodi to‘g‘risida hikoya qiluvchi bebaho tarixiy ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan. Eski shaharga tashrif nafaqat islom me‘morchiligining go‘zalligidan bahra olish, balki davr ruhini his qilish, Buxoro madaniy merosining qadr-qimmatini anglash imkonini beradi.

Bugun ziyorat turizmi rivojlangan Indoneziya, Malayziya, Hindiston, Pokiston, Bangladesh va arab davlatlaridan ziyoratchilarni mamlakatimizning tarixiy shaharlari, xususan, Buxoroga jalb etish asosiy vazifa sifatida belgilab olingan. Abduxoliq G‘ijduvoni, Orif Revgariy, Anjir Fag‘naviy, Ali Romitaniy, Boboyi Samosiy, Amir Kulol va Bahouddin Naqshband shu zaminda mangu qo‘nim topgani ziyorat turizmi yo‘nalishi uchun asosdir.

Taniqli olim va faylasuflar bilan bog‘liq manzillarni ko‘rish, qadamjolarini ziyorat qilish, shuningdek, ularga aloqador kutubxonalar, ta‘lim muassasalarida bo‘lish xorijlik sayyohlarda unutilmas taassurot qoldiradi. Misol tariqasida Abdulazizxon madrasasini keltirish mumkin. XVII asrga taalluqli ushbu obida o‘z davrida Buxorodagi eng yirik o‘quv muassasalaridan biri bo‘lgan. Bu yerga keluvchilar maorif rivojiga ulkan hissa qo‘shgan mashhur olim va hukmdor Abdulazizxonning hayoti va ilmiy faoliyati bilan yaqindan tanishadi.



Shunday manzillardan yana biri Abu Ali ibn Sino kutubxonasidir. U atoqli tabib, olim va faylasufning hayoti hamda ilmiy yutuqlariga oid qimmatli qo'lyozma va kitoblar saqlanadigan joy bo'lib, bu yerda ularni ko'rish, allomaning tibbiyot hamda falsafaga qo'shgan hissasi haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

Buxorodagi eng yirik sayyohlik manzillaridan yana biri Bahouddin Naqshband maqbarasidir. XVI asrga taalluqli maqbara mutasavvuf yodgorlik majmuasida joylashgan. Ushbu me'moriy yodgorlikka shayboniy Abdulazizxon asos solgan.

Buxorodagi eski qal'a va mudofaa inshootlarini o'rganish, shuningdek, shahar tarixining turli davrdagi mudofaasi haqida ma'lumot olish nafaqat xorijiy, balki mahalliy sayyohlarga ham juda qiziq. Bu yo'nalishga Ark qal'asi, Chashmai Ayyub, Buxoro devori, Fayzobod qal'asi, Buxoro mudofaa muzeyini kiritish mumkin.

Buxoro arki shaharning V asrga oid qadimiy qal'asidir. Unda nafaqat hukmdorlar, balki buyuk olimlar, shoiru faylasuflar yashab, ijod qilgan. Shahar madaniyati eng yuksalgan o'rta asrlarda arkda Rudakiy, Firdavsiy, Abu Ali ibn Sino, Forobiy, Umar Hayyom kabi buyuklar yashagan. U shaharga hayratlanarli va o'ziga xos ko'rinish taqdim etadi.


Ziyorat turizmining ajralmas qismiga aylangan Poyi kalon majmuasi esa XII-XVI asrlarda barpo etilgan. Majmua masjid va madrasani o'z ichiga olgan, islom me'morchiligining eng yaxshi namunalaridan biri.

Hozirgacha faoliyat yuritib kelayotgan eng qadimgi diniy maktablardan biri Mir Arab madrasasida sayyohlar musulmon universitetining ochiq, hayratlanarli hayotini ko'rishi mumkin.

Buxoroning ajoyib sayyohlik imkoniyatiga guvoh bo'lishni istagan sayyoh Labi hovuz majmuasiga borishi shart. U Markaziy Osiyodagi ushbu turdagi inshootlar ichida eng katta va qadimiysi. Hozir madrasa hovlisida milliy raqs va liboslar namoyishi bilan mashhur xalq tomoshasi tez-tez o'tkazib turiladi.

Hozirgi kunda Buxoroda turizm eng yaxshi rivojlanayotgan turizm sohasi deb ta'kidlash mumkin. Pandemiyaning inobatiga olmasak, oxirgi 10 yil ichida turizm sohasi eng yuqori daromad keltiruvchi xizmat ko'rsatish sohasi bo'lib kelmoqda. Masalan 2017-yilda Buxoro viloyatiga tashrif buyurgan turistlar soni 1.4 million, 2018-yilda esa 2.5 mln, 2019-yilda esa 3.6 mlnga yetgan. Koronavirus pandemiyasi sababli 2020- yilda turistlar soni ancha pasaygan, ya'ni 250 ming sayyoh tashrif buyurgan. Keyingi yillarda esa hukumat tomonidan amalga oshirilgan sa'y-harakatlar tufayli 2021-yilda 2.2 mln, 2022-yili 3.5 mln sayyoh, 2023-yili esa bu ko'rsatkich 4.87 mlnga yetdi.






1-rasm. 2017-2023-yillarda Buxoro viloyatiga qit'alar kesimida tashrif buyurgan sayyohlar soni⁶

1-rasmda keltirilgan sayyohlar ko'rsatgichini qit'alar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, 7 yil davomida Yevropa davlatlaridan 930 814, Amerika qit'asidan 95 385, Osiyo qit'asidan 664 211, MDH davlatlaridan 1 290 660 nafar sayyoh va boshqa davlatlardan 33 830 nafar sayyoh Buxoro viloyatiga tashrif buyurishgan. Asosan sayyohlarning kamayishi 2020-2021-yillarda bo'lgan. Bunga albatta butunjahonda bo'lgan Koronavirus epidemiyasi sabab bo'lgan. Keyin yillarda esa hukumat tomonidan olib borilgan to'g'ri siyosat natijasida viloyatga tashrif buyurgan sayyohlar soni yana o'z o'rniga kelgan (1-rasm).

Bularning barchasi yildan yilga infrotuzilmaning yaxshi yo'lga qo'yilganini sabab qilishimiz mumkin. Chunki turfirmalar soni, joylashtirish vositalari, transport, ovqatlantirish obyektlari, diqqatga sazovor joylar ham yildan yilga ortib borishi, keyingi yillarda sayyohlar sonining yanada oshishiga olib keldi. Quydagi rasmda bu ko'rsatkichlarni ko'rishimiz mumkin (2-rasm).

⁶ Buxoro viloyati Turizm boshqarmasi ma'lumotlariga asoslangan holda muallif ishlanmasi



2-rasm. Umumiy joylashtirish vositalari soni⁷

2-rasmda 2017-2023-yillar oralig'ida umumiy joylashtirish vositalari va shulardan mehmonxona, mehmon uyi va oilaviy mehmon uylari alohida ajratib o'tilgan. 2017-yilda umumiy joylashtirish vositalari 114 ta shulardan 108 tasi mehmonxona shulardan 8 tasi mehmon uyi va oilaviy mehmon uylari, 2018-yilda 168 ta joylashtirish vositalari shulardan 126 tasi mehmonxona shulardan 36 tasi mehmon uyi va oilaviy mehmon uylari va yillar davomida o'sib borish tartibida 2023-yilda 541 ta joylashtirish vositalari shulardan 197 tasi mehmonxona shulardan 267 tasi mehmon uyi va oilaviy mehmon uylariga yetgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Buxoro viloyatida turizmni rivojlantirishda birinchi navbatda turizm infratuzilmasini qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki yuqorida ta'kidlab o'tilgandek hali turli xil yo'nalishlarida bajariladiga ishlar talaygina hisoblanadi. Shuning uchun ko'pgina tursitik faoliyatlardan birinchi navbatda xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, yangi turistik yo'nalishlarni yo'lga qo'yish kelajakda turizm sohasini yanada rivojlantirishga sabab bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Джумаева, З. (2025). ФОРМИРОВАНИЕ КОНЦЕПЦИИ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ, ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ И ЕЕ

⁷ Buxoro viloyati Turizm boshqarmasi ma'lumotlariga asoslangan holda muallif ishlanmasi

2. Жумаева, З. К. (2019). АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА. *ББК 65.0501 А 43*, 190.

3. Жумаева, З. К. (2024). Инвестиционная Активность Как Основной Элемент Организационно-Экономического Механизма Маркетинга Территории. *Miasto Przyszłości*, 55, 1411-1417.

4. Джумаева, З.К., и Ш, К.М. (2025). О 'ZBEKISTONDA YENGIL SANOAT KORXONALARI MARKETING FAOLIYATI HOLATI Tahlili. *АНАЛИЗ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ИННОВАЦИЙ* , 1 (7), 186-189.

5. Джумаева, З. (2025). РОЛЬ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ. *Международный журнал искусственного интеллекта* , 1 (1), 483-488.

6. Жумаева, З. К. (2024). Мобильный Маркетинг Как Эффективное Средство Стимулирования Сбыта Товаров И Услуг. *Miasto Przyszłości*, 54, 697-702.

7. Жумаева, З. К. (2024). РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ ИНДУСТРИЙ КАК ФАКТОР РОСТА НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: ОБЗОР ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.

8. Джумаева, З. (2025). РОЛЬ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ. *Международный журнал искусственного интеллекта* , 1 (1), 483-488.

9. Джумаева, З.К., и Гулямова, Н.Г. (2025). О 'ZBEKISTONDA MINTAQANI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH. *ТЕОРИЯ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ВСЕГО МИРА* , 1 (5), 152-159.

10. Жумаева, З. К., & Ахмедова, Ф. Р. (2025). РОЛЬ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(7), 323-330.

11. Jumayeva, Z. Q., & Matkarimov, G. (2025). MINTAQADA FAOL INVESTITSIYA SIYOSATINI IQTISODIYOT TARMOQLARINI O 'SISHIGA TA'SIRI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(6), 205-212.

12. Джумаева, ZQ (2017). ТЕОРИИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СТАБИЛЬНОСТИ НА РЫНКАХ ТРУДА РАЗВИТЫХ СТРАН. *Инновационное развитие* , (4), 64-66.